XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-20-162-3-49-K/25 Zarbdor tumani

Zarbdor tumani boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qaʼridan foydalanganlik uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari boʻyicha) soliq stavkalariga kamayuvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar qoʻllash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-, 437-, 445-va 452-moddalari, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-23-351-3-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi qaroriga asosan Zarbdor tumani uchun yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 53.0 mln. soʻm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 395,9 soʻm minimal miqdor belgilanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (J.Nishonov) hamda tuman Soliq inspeksiyasi (v.b. B.Murodov)ning hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qaʼridan foydalanganlik uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari boʻyicha) soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qoʻllash boʻyicha takliflari inobatga olinsin.

3. Tumanning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab 2026-yil uchun yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlarining 1 gektariga belgilangan yer soligʻi stavkasiga, jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini

yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan tashqari) 1 kv. metr uchun belgilangan yer soligʻi stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va yer qaʼridan foydalanganlik uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari boʻyicha) soliq stavkalariga qoʻllaniladigan kamayuvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar va soliq stavkalari 1-, 2- va 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Soliq kodeksining 429- va 437-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashlari yer soligʻi stavkalariga mahalliy byudjet prognozlarini inobatga olib, ilovaga asosan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan mahalla, koʻcha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

5. Soliq kodeksining 445-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari suv soligʻi stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilashga haqli ekanligi (bundan Soliq kodeksining 445-moddasi birinchi qismining 2- va 3-bandlari, shuningdek roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilar mustasno) inobatga olinsin.

6. Soliq kodeksining 452-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli ekanligi inobatga olinsin.

7. Tuman Soliq inspeksiyasi (v.b. B.Murodov) 2026-yil uchun ushbu qaror bilan tasdiqlangan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini taʼminlasin.

8. “Zarbdor” gazetasi (Gʻ.Xamzayev) hamda tuman hokimligi axborot xizmati (Oʻ.Sulaymanov)larga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash vazifasi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Q.Nurmatov zimmasiga yuklansin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish barcha doimiy komissiyalar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

TASHPULATOV BEKZOD TURGUNOVICH

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-162-3-49-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar boʻyicha mahallalar kesimida yer soligʻi stavkalari uchun 2026 yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer soligʻi stavkalari 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar boʻyicha 1 kv.m uchun	
		Koeffitsiyent (0.7 dan 3 gacha)	Yer soligʻi stavkasi 2026 yil uchun (soʻmda)	Koeffitsiyent (0.7 dan 3 gacha)	Yer soligʻi stavkasi 2026 yil uchun (soʻmda)
1	Adirobod MFY	0.85	45 050 000.00	0.79	312.72
2	Andijon MFY	0.85	45 050 000.00	0.77	304.80
3	Dustlik MFY	0.90	47 700 000.00	0.79	312.72
4	Yoshlik MFY	0.82	43 460 000.00	0.77	304.80
5	Lalmikor MFY	0.90	47 700 000.00	0.79	312.72
6	Mustaqillik MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64
7	Navbahor MFY	0.82	43 460 000.00	0.77	304.80
8	Navoiy MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64
9	Navroʻz MFY	0.90	47 700 000.00	0.79	312.72
10	Nurafshon MFY	0.82	43 460 000.00	0.76	300.85
11	Nurobod MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64
12	Oybek MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64
13	Oqar MFY	0.82	43 460 000.00	0.77	304.80
14	Oqbuloq MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64
15	Ravot MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64

16	Taraqqiyot MFY	0.90	47 700 000.00	0.77	304.80
17	Tinchlik MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64
18	Toshkesgan MFY	0.85	45 050 000.00	0.77	304.80
19	Sharq yulduzi MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64
20	Shodlik MFY	0.90	47 700 000.00	0.77	304.80
21	Yangi hayot MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64
22	Yangikent MFY	0.82	43 460 000.00	0.77	304.80
23	Yangiobod MFY	0.90	47 700 000.00	0.81	320.64

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-162-3-49-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Er usti	Er osti	Er usti	Er osti	Er usti	Er osti	Er usti	Er osti
1	Zarbdor tumani	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-162-3-49-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga oʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidridganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar
1	Zarbdor tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25